

Shukurova Zarifa Xaitmuratovna,
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 326-son
davlat ixtisoslashtirilgan umumtalim maktabining
fizika va informatika fanlari o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRI PEDAGOGLARI FAOLIYATINI NAZORAT QILISH MEKANIZMLARI: O'ZBEKISTONNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

UO'K: 371.126

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_7_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_7_1)

SHUKUROVA Z.X. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRI PEDAGOGLARI FAOLIYATINI NAZORAT QILISH MEKANIZMLARI: O'ZBEKISTONNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirgan pedagoglarning keyingi faoliyatini nazorat qilishning ahamiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, pedagog kadrlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning yangi modelini joriy etish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar hamda amaliy natijalar keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: uzluksiz, tizim, kasbiy rivojlanish, uzluksiz malaka oshirish.

ШУКУРОВА З.Х. МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ ВЕКА ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: СИСТЕМА И БУДУЩЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

В статье рассматриваются важность и особенности контроля за деятельностью педагогов после повышения квалификации в системе непрерывного профессионального развития, а также возможности внедрения новой модели контроля за деятельностью педагогических кадров после повышения квалификации и повышения ее эффективности, представлены рекомендации и практические результаты.

Ключевые слова и понятия: непрерывный, система, профессиональное развитие, непрерывное повышение квалификации.

SHUKUROVA Z.H. MECHANISMS OF CONTROL OF ACTIVITIES OF TEACHERS OF THE AGE OF DIGITAL TECHNOLOGIES: SYSTEM AND FUTURE PROSPECTS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

The article discusses the importance and specific features of monitoring the activities of teachers after professional development within the system of continuous professional growth, as well as the opportunities for implementing a new model of monitoring the activities of teaching staff post-training and enhancing its effectiveness. Recommendations and practical results are also presented.

Key words and concepts: continuous, system, professional development, continuous professional development.

Kirish. Bugungi kunda jahonda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning mexanizmlari ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat va maktab bugungi kunda ta'limning yangi muammolarini sifatli hal eta oladigan zamonaviy o'qituvchiga muhtoj. Barkamollik, mas'uliyat, kasbiy faoliyatni jahon standartlari darajasida amalga oshirish qobiliyati va "doimiy kasbiy o'sishga, ijtimoiy va kasbiy faollikka" tayyor bo'lish zamonaviy o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlaridir. Shu munosabat bilan o'qituvchining uzluksiz malaka oshirishdan keyingi ta'lim tizimining roli va ijtimoiy mavqeini aniqlash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jahonda uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatining samaradorligi ta'lim oluvchi shaxsning barcha ta'lim yo'nalishlari markaziga aylangan insoniy g'oyalar (personal ideas)ning pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni to'liq namoyon etish uchun didaktik muhit yaratish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari, tarbiyachi shaxsi modeli, baholash mezonlarini takomillashtirishning nazariy - metodik ta'minotini yaratish va ta'minlashni, didaktik tamoyillar asosida yoshlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishni talab etmoqda.

Bunda ta'lim sohasi rivojlanayotgan barcha mamlakatlar pedagoglarining davriylikka asoslangan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga transformatsiya qilish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, har bir o'qituvchining kasbiy ehtiyojini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha yuqori samarali mexanizmning kerakliligi va ushbu mexanizm orqali o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishini belgilashga zarurat paydo bo'la boshladi. Ushbu mexanizm o'qituvchining yangi bilimlarni olishda oldingi bilimni diagnostika qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2019 yil 30 sentyabrdagi PQ-4467-son "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini joriy etilishi bir qator muammolarga yechim sifatida talqin etildi. Jumladan, pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish, ehtiyojlariga mos variativ kontentlarni yaratish va malaka oshirish faoliyatini avtomatlashtirish hamda ta'lim oluvchilar uchun bir qator qulayliklarni yaratish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi va pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilish masalalari zamonaviy ta'lim tizimida katta ahamiyatga ega. Ta'limda raqamli texnologiyalar va yangi pedagogik usullarni joriy etish bilan pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, malaka oshirishdan keyingi faoliyatni samarali nazorat qilish, o'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va yangi nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, o'quvchilarning bilim darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Mavzuga oid ilmiy izlanishlar va ularning tahlili.

Xalq ta'limi rahbarlari va pedagog xodimlarining malaka oshirish jarayonini hamda ta'lim sifati monitoringini boshqarishda ta'lim monitoringini amalga oshirishning izchil va tizimli yondashuvlari masalalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha mam-lakatimizda

R.X.Djurayev¹, Sh.Qurbonov², M.U.Axmedov³, T.T.Shoymardonov⁴, A.B.Radjiyev⁵ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek MDH olimlari E.M.Nikitin⁶, P.V.Xudominskiy⁷ larning ilmiy ishlarida o'qituvchilarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish sifati boshqaruvi, sifat monitoringiga tizimli-faoliyatli yondashuvni joriy etish muammolari tadqiq etilgan.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, jamoaviy kasbiy rivojlanish, maktabni takomillashtirish dasturining muvaffaqiyatli zaruriy sharti ekanligi borasida fikrlar Maykl Fullan⁸, E.Xargrives va D.Shirli⁹ kabi xorijlik olimlarning asarlarida o'z aksini topgan.

Maqolaning ilmiy mazmuni shundaki, unda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning ahamiyati va uning

o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, bugungi kunda umumta'lim maktablari pedagog xodimlarining malaka oshirish jarayonidan keyingi faoliyatini nazorat qilishning qat'iy belgilangan mexanizmining yo'qligi va bunday tizimni yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalarning to'liq mohiyati yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotning maqsadi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirgan pedagoglarning keyingi faoliyatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va pedagoglarning malaka oshirish jarayonidan so'ng ularning o'qitish faoliyatini samarali nazorat qilish uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlarni aniqlash hamda takomillashtirishdir. Tadqiqotda malaka oshirgan pedagoglarning faoliyatini nazorat qilishning mavjud tizimlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqish, shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va ta'lim sifati yaxshilashga yordam beradigan amaliy tavsiyalar taqdim etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirishi va keyingi faoliyati.

Tadqiqotning predmeti Xalq ta'limi tizimidagi rahbarlar, pedagoglar va mutaxassis xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirgandan keyingi faoliyatini nazorat qilish shakllari, usullari va mexanizmlari.

Tadqiqotda foydalanilgan metodlar: Tadqiqot jarayonida pedagoglarning malaka oshirish jarayoni va keyingi faoliyatini nazorat qilish vazifalarni yechimini topish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlil qilish, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida malaka oshirish va nazorat qilish mexanizmlarini solishtirib chiqish uchun qiyosiy tahlil qilish, onlayn so'rov.

Tadqiqotning empirik manbalari o'quvchilar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish, malaka oshirish jarayonining samaradorligini baholash va nazorat mexanizmlarini tekshirish maqsadida empirik ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish amalga oshirildi. So'rovnomalar asosida ma'lumotlar to'plandi.

Asosiy qism. O'zbekistonda bugungi kunda malaka oshirish tizimi muhim o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ayniqsa ta'lim va kasbiy rivojlanish sohasida. Hukumat tomonidan bir

¹ Джуряев Р.Х. Проектирование качество образования. - Ташкент: Фан. 2009. - 62 б.

² Курбанов Ш, Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. - Т.: «Турон-Иқбол», 2006. - 592 б.

³ Ахмедов М.У. Умумтаълим мактаб директорларининг малакасини оширишда таълимсифати мониторингини такомиллаштириш / PhD илмий даражаси учун диссертацияси - 13.00.07. - Тошкент - 2019.

⁴ Шоймардонов Т.Т. Педагог кадрлар малакасини ошириш ва касбий фаолияти мониторингини ташкил этишнинг электрон тизими / ПхД диссертацияси автореферати. 13.00.06. - Тошкент: 2017.

⁵ Раджиев А.Б Халқ таълими тизимида раҳбар ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни бошқариш самарадорлигини ошириш / ПхД диссертацияси -13.00.07. - Тошкент - 2020

⁶ Никитин Э.М. Федеральная система повышения квалификации работников образования. История становления, сравнительный опыт, современное состояние, прогнозирование, развитие. Учебное пособие. - М.: МО РФ, РИПКО, 1995. - 194 с.

⁷ Худоминский П.В. Развитие системы повышения квалификации педагогических кадров советской общеобразовательной школы (1917 - 1981 гг.). М., 1986.-184 с.

⁸ Fullan M. (2001) Leading in a culture of change. / SanFrancisco:Jossey-Bass.

⁹ Hargreaves A. and Shirley D. The Fourth Way. (2009) // Corwin and SAGE p.89-91

qancha qarorlar qabul qilindi va malaka oshirish tizimi yangilanib, zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh va samarali bo'lishi uchun ishlanmoqda. Jumladan 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarorlari xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini uzluksiz kasbiy rivojlantirish prinsiplari asosida tashkil etish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Mazkur qarorga binoan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"da A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutiga 2021-yil 1-martdan boshlab bosqichma-bosqich xalq ta'limi xodimlarining «Life-long learning» tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining o'quv dasturlarini va videokontent ishlab chiqish va platformaga joylashtirish yuzasida topshiriq berilgan.

Ushbu masalada "Yo'l xaritasi"da belgilangan topshiriqlarni amalga oshirish maqsadida 2021-yilda tashkil etiladigan onlayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish tashkil etishda "UPGRADE" 2 ta yo'nalish bo'yicha 61 kurs va ushbu kurslar uchun 297 kontent materiallari, 2022-yil uchun Pedagogika markazlari professor-o'qituvchilari tomonidan 32-ta yo'nalish bo'yicha 171 kurs va ushbu kurslar uchun 998 kontent materiallari hamda 2023-yil uchun "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022" loyihasi doirasida 25-ta yo'nalish bo'yicha 272 kurs va ushbu kurslar uchun 1029 va Pedagogika markazlari tomonidan 12-ta yo'nalish bo'yicha 96 kurs va ushbu kurslar uchun 398 kontent materiallari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

2023-yilda tashkil etiladigan uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonlari Xalq ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 236-sonli buyrug'iga asosan rahbar va metodist xodimlar 8 ta, pedagog o'qituvchilar 8 ta kompetensiya bo'yicha oflayn (Pedagogika markazlari, malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan Oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlari) va onlayn ("Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi) tarzda orqali malaka oshirish uchun imkoniyat yaratildi.

2023-yil "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali jami 10 655 ta ta'lim muassasasi, ushbu ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan 574 233 nafar rahbar va pedagog xodimlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, 157 739 nafari erkak va 414 122 nafari ayol xodimlardan iborat.

Shundan, Maktab va maktabgacha ta'limi boshqarmasi boshliqlari va bo'lim mudirlari - 108 nafar, metodistlari - 2 479, ta'lim muassasalari rahbarlari - 10 957, fan yo'nalishlari bo'yicha 507 239 nafar pedagoglar, Axborot resurs markazi (kutubxona) rahbar va xodimlari - 9 357 nafar, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari mutaxassislari pedagoglari - 620 nafar, direktor o'rinbosarlari - 24 569 nafar, Barkamol avlod bolalar maktabi to'garak rahbarlari - 1 002 nafar, Maxsus ta'lim muassasasida tarbiyachilari 1 033 nafar va trenerlar - 81 nafarni tashkil etadi.

2023-yilda ushbu uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonni tashkil etishda barcha (rahbar va pedagoglar) yo'nalishlardagi umumta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish borasida bugungi kundagi muammoli holatlar, o'qitishdagi vaziyatlar yuzasidan kontent yaratish bo'yicha tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan 2022-yil sentyabr oyida mavzular banki yaratildi va so'rovnomma tarzda tegishli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar fikri o'rganilib, eng yuqori tanlovlar asosida mavzular shakllantirildi.

Modullar bo'yicha mavzularni shakllantirishda Xalq ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 236-sonli buyrug'iga asosan rahbar va metodist xodimlar 8 ta, pedagog o'qituvchilar 8 ta kompetensiyalarda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asos qilib olindi. Jumladan, "Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari" moduli bo'yicha: Fizika darslarida xalqaro tadqiqotlar topshiriqlaridan foydalanish usullari o'quv kursi – 6 soat, Fizika darslarida amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarish usullari o'quv kursi – 6 soat, Fizika darslarini tashkil etishning dolzarb masalalari o'quv kursi – 6 soat va O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari moduli bo'yicha: Fizika fanidan o'quvchilarni baholash usullari o'quv kursi – 4 soatlik mavzular umumiy o'rta ta'lim muassasalari fizika fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida tuzilgan. Dasturga kiritilgan mavzular fizika fani o'qituvchilarining yuqori kasbiy salo-

hiyatga ega bo'lishlarida asosiy tayanch bo'lib xizmat qilishi, ya'ni, dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo'yilgan zamonaviy talablar va uning mashg'ulot samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kompyuter dasturlari yordamida tayyorlangan didaktik vositalardan foydalanish, virtual laboratoriya mashg'ulotlarining o'quv-metodik ta'minoti, masalalar turlari, ularni yechish metodlari, o'quvchilarning nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar berib borishi nazarda tutilgan bo'lib, ushbu ishchi o'quv-mavzu reja va dasturlari kontent materiallari tayyorlanildi va amaliyotga joriy etildi.

Shuning bilan birgalikda, Xalq ta'limi vazirligi hamda Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Xalq ta'limi tizimidagi pedagog-xodimlarning onlayn malaka oshirish kurslarini tashkil etish bo'yicha «Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022» loyihasi amalga oshirildi. Ushbu loyiha doirasida Fizika fani bo'yicha tasdiqlangan reja asosidagi video darslar, interaktiv ma'ruzalar va bir qator kontentlar tayyorlandi.

Tayyorlangan kontent materiallari asosida respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3 500 mingdan ortiq fizika fani o'qituvchilari onlayn tarzda uzluksiz kasbiy malakalarini oshirishdi va elektron sertifikatga ega bo'lishdi.

Fizika fani o'qituvchilarini 2023-yil uchun oflayn va onlayn taqdim etilgan malaka oshirish jarayonlari va uzluksiz kasbiy malaka oshirishda o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash yuzasidan rahbarlar, pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilar fikrlarini o'rganish yuzasidan ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. Jumladan:

Rahbar va pedagog xodimlarning pedagogika markazlarida oflayn va platforma orqali onlayn tashkil etilgan uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonida o'rganilgan bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarini o'z kasbiy faoliyatida qo'llash bo'yicha onlayn o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma jami 37 168 nafar rahbar va pedagog xodimlar ishtirok etishdi.

Pedagogika markazlari kurs tinglovchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayoni bo'yicha fikrlarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma jami 442 nafar rahbar va pedagog xodimlar ishtirok etishdi. Shundan, 81 nafari

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi oflayn tarzda uzluksiz kasbiy malaka oshirayotgan tinglovchilarda va 361 nafar onlayn tarzda ishtirok etishdi.

Umumta'lim maktablari rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonidagi ishtiroki va malaka oshirishdan keyingi kasbiy faoliyatidagi o'zgarishlar yuzasidan ota-onalar fikrlarini o'rganish bo'yicha ijtimoiy so'rovnoma jami 15975 nafar rahbar va pedagog xodimlar ishtirok etishdi.

Shu bilan bir qatorda, 2023-yil may oyida A.Avloniy milliy-tadqiqot institutida uzluksiz kasbiy malaka oshirayotgan umumta'lim maktablari direktorlari bilan savol-javob va interviyu usulida suhbatlar o'tkazilganda, bugungi kunda umumta'lim maktablari pedagog xodimlarining malaka oshirish jarayonidan keyingi faoliyatni nazorat qilishning qat'iy belgilangan mexanizmning yo'qligi va bu jarayon aynan malaka oshirish jarayoni sifatini belgilovchi omillardan biri ekanligini ta'kidlashdi.

Tajriba-sinov o'tkizalayotgan fizika fani bo'yicha tahlil qilib chiqamiz:

Respublikamiz bo'yicha 16581 nafar maktab fizika fani o'qituvchilari "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasidan ro'yxatdan o'tgan va diagnostika ishlari amalga oshirilgan.

Fizika fani o'qituvchilarining faoliyatga doir muhim sanalgan 8 ta kompetensiya bo'yicha diagnostika va o'zlashtirish natijalari tahlillari o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 36,3% ga ortganini ko'rsatmoqda. Jumladan:

- O'quvchilarning kompetensiyalarini xolisona baholash kompetentligi 41,3/89,3%
- Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari 54,1/82,9%
- Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari 44,8/81,9%
- Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi 49,2/84,1%
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasi 47,8/82,7%
- Kommunikativ kompetensiya 48,9/85,6%
- Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetensiyasi 48,8/81,1%
- O'zini-o'zi va kadrlarni rivojlantirish kompetensiyasi 51,8/89,4%

1-jadval. Fizika fani o'qituvchilarining onlayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurslaridan oldingi diagnostika natijalari

Diagnostika natijasi	Darajalar	O'qituvchilar soni va ulushi	Diagnostika ko'rsatkichi (%)
	Qoniqarsiz	2016 (56,8%)	47,3
	Qoniqarli	1199 (33,8%)	59,7
	Yaxshi	334 (9,4%)	72,6
	Jami:	3549 (100%)	60

2-jadval. Fizika fani o'qituvchilarining onlayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurslaridan malaka oshirishdan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Malaka oshirgan- dan so'ng	Darajalar	Qoniqarsiz		Qoniqarli		Yaxshi		A'lo	
		O'qituvchilar soni va ulushi	Diagnostika ko'rsatkichi (%)	O'qituvchilar soni va ulushi	Diagnostika ko'rsatkichi (%)	O'qituvchilar soni va ulushi	Diagnostika ko'rsatkichi (%)	O'qituvchilar soni va ulushi	Diagnostika ko'rsatkichi (%)
	Qoniqarsiz	170 (8,5%)	49,3	1171 (58,1%)	65,3	644 (31,9%)	76,7	30 (1,5%)	86,1
	Qoniqarli			54 (4,5%)	68,5	1002 (83,9%)	81,4	139 (11,6%)	86,2
	Yaxshi					156 (46,7%)	84,2	178 (53,3%)	86,9
	Jami:	170 (4,8%)	49,3	1225 (34,5%)	66,9	1807 (50,9%)	80,8	347 (9,8%)	86,4

Hozirgi kunda umumta'lim maktabi fizika fani o'qituvchilarining kursdan oldingi kompetensiyalar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, o'qituvchilarning kompetensiyalarini xolisona baholash bo'yicha ko'nikmasi (41,3%) juda past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari kompetentligi ham (44,8%) pastligi so'ngi yillarda fizika fani o'qituvchilarining xolisona baholash va o'z mutaxassislik fani bo'yicha ko'rsatkichlari passiv ekanligini ko'rsatmoqda. Fizika fani o'qituvchilarining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasi ham (47,8%) talabga javob bermasligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda pedagoglar qo'yiladigan Davlat talablari belgilangan va umumta'lim maktablari fizika fani o'qituvchilarining egalashi lozim bo'lgan kompetensiyalar bo'yicha ko'nikmalari pastligi va bu bo'yicha bir qator islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda (1-jadval).

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, fizika fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurs mazmuni takomillashtirish, kursdan keyingi pedagogik faoliyatdagi samaradorligini aniqlash

va aniqlangan tahlillar asosida tizimni rivojlantirish yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Bu esa uzluksiz kasbiy malaka oshirish ta'limi jarayonlarida har tomonlama professional tajribali pedagoglarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari va tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagog kadrlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning yangi modelini joriy etish, uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimining mazmunan amaliyot bilan bog'lovchi bugungi hamda ertangi rivojini belgilab beruvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish va malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilish samaradorligini aniqlash tajriba-sinovdan o'tkazilib, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurslarini va malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilish samaradorligini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat edi. Shu maqsadda ishlab chiqilgan meto-

dika asosida tajriba-sinov ishlari uch bosqichda (qayd qiluvchi, izlanishli hamda o'rgatuvchi), Toshkent shahrida va onlayn tarzda respublikamizning barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkazildi. Xususan, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali Respublika umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan fizika fani o'qituvchilari uchun onlayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish kurslarida, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida, Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida, Toshkent shahridagi 326-sonli ixtisoslashtirilgan maktablarda amalga oshirildi. Xususan:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish o'quv modullari bo'yicha tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi;

Tajriba-sinov davomida fizika fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayoni, o'qituvchilarning kursdan keyingi faoliyati o'rganib chiqildi;

Fizika fani o'qituvchilarining kurs modullari bo'yicha o'quv materiallarini mavjud ahvoli o'rganildi;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Fizika fani o'qituvchilarining malaka oshirish kursi modullari bo'yicha tayyorlangan o'quv materiallari loyihasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi va olingan natijalar umumlashtirildi.

2. Tajriba-sinov ishining birinchi va ikkinchi bosqich yakunida ishlab chiqilgan Fizika fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayoni oldingi diagnostikasi va o'quv mashg'ulotlari yakunida tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish ko'rsatgichlari aniqlandi va qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar xulosalandi, tahlillar umumlashtirildi.

3. Tajriba-sinov ishining yakuniy bosqichida olingan natija samaradorligi aniqlandi hamda pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning yangi modelini joriy etish, uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini mazmunini boyitish yuzasida muammolar o'rganildi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Pedagog kadrlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning yangi modelini joriy etish va uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini mazmunini boyitishda, quyidagi jarayonlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchiidan: Pedagog xodimlarning malaka oshirish rejasini shakllantiruvchi mas'ullar faoliyatini takomillashtirish. Pedagog xodimlarning malaka oshirish rejasini shakllantirishda, ularning ehtiyojlarini diagnostik test, so'rovnoma, davra suhbatlari, intervyular orqali o'rganish va o'rganilgan tahlillar asosida rejani shakllantirish. Hozirgi kunda umumta'lim maktablari pedagog xodimlari faqat kasbiy faoliyatlaridan (masalan, o'qitadigan fanlari yoki lavozimlaridan) kelib chiqqan holda tuzilgan dasturlar asosida o'qitilmoqda. Tabaqalashtirilgan tarzda o'qitish yo'lga qo'yilmagan.

Ikkinchiidan: Malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha tajribali mutaxassislar jamoasini tashkil etish. Pedagog xodimlarning har yili malakasini oshirish belgilangani bois, ular uchun har yili o'quv dasturlarini qaytadan ko'rib chiqish va yangilash zarurati mavjud, biroq mazkur faoliyat bilan muntazam va tizimli ravishda shug'ullanadigan mutaxassislar jamlangan tarkibiy bo'linma mavjud emas. Bu esa o'z navbatida kelgusida tashkil etiladigan malaka oshirishning sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Uchinchiidan: Pedagog xodimlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilish va baholashning elektron tizimini yaratish. Hozirda malaka oshirgan pedagog xodimlarning mehnat faoliyatlari natijalarini baholash orqali kurs samaradorligini aniqlash mexanizmini ishlab chiqilgan.

To'rtinchiidan: Pedagog xodimlarning onlayn uzluksiz kasbiy malaka oshirishini ta'minlovchi kontent ishlab chiqaruvchi jamoani shakllantirish. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasidagi malaka oshirish kurslarining kontentini har yili yangilab borish lozim, biroq buning uchun kontentlarni yaratish bilan doimiy tarzda shug'ullanadigan alohida tarkibiy bo'linma ("Kontentlar fabrikasi") mavjud emas.

Beshinchiidan: Pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy malaka oshirishini uchun texnik jihatdan qulaylik yaratish. Hozirgi kunda aksariyat pedagoglarning mobil telefondan foydalanishayotganligi va doimiy internet mavjud emasligini hisobga olib, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasining Android va iOS tizimlar uchun mobil ilovasini yaratish zarurati mavjudligi.

Ushbu keltirilgan uzluksiz kasbiy malaka oshirishni tashkil etish va nazorat qilish jarayoni

onni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bugungi kungi malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini oshiruvchi omillar deb hisoblaymiz.

Pedagog kadrlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning yangi modelini joriy etish bo'yicha **tavsiyalar:**

1. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi (onlinedu.uz)da o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va o'sish dinamikasi monitoringini qayd etib boruvchi elektron partfoliosini yaratish.

2. Har yili o'qituvchilarning partfoliosini monitoring qilish natijasida reytingini aniqlash (erishgan yutuqlari, malaka oshirishdan keyingi faoliyatlarini fanlar, maktablar va hududlar kesimida).

3. O'qituvchilarning malaka oshirishdan oldingi va keyingi faoliyatini shaxsiy elektron partfoliosi orqali kuzatish hamda doimiy monitoring qilib borish tizimini ishga tushirish.

4. Yuqori natijalarga erishgan pedagoglarni rag'batlantirish hamda tarmoq va davlat muko-

fotlariga tavsiya etishning shaffof tizimini yo'lga qo'yish.

5. Kundalik.com orqali pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatida o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatgichlari samaradorligini hisoblash tizimini yaratish.

6. Kundalik.com orqali o'qituvchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini o'rganish bo'yicha ota-ona va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar so'rovnoma o'tkazish tizimini yaratish.

7. Doimiy ravishda o'zi va o'quvchilari bilimini baholash natijalari past o'qituvchilar guruhlar uchun rejada tashqari maxsus kurslar tashkil etib, malaka oshirish kurslariga majburiy jalb etib borish. Shunda ham o'zgarish bo'lmasa, ya'ni malaka oshirishdan keyingi monitoring natijalari past ko'rsatgichli va o'z kasbiy mahoratini oshirishni istamagan o'qituvchilarni jazo tariqasida dars soatlarini qisqartirish, oylik maoshlarini kamaytirish yoki maktab tizimidan chiqarishni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. - <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. -

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori.- <https://lex.uz/uz/docs/-5828765>

5. Umurzoqov O'. Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi. - "Xalq so'zi", 2020 yil 29 oktabr soni <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>

6. Radjiev A., Karimov F. va boshqalar. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimi. - Toshkent: 2021.